

TIBBIYOT YO'NALISHIDAGI SOTSIAL MUAMMOLAR

**Axmedova Feruza Medetovna**

*O'zbekiston Milliy Universiteti dotsent v.b.,  
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: [farihon72@mail.ru](mailto:farihon72@mail.ru)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sotsiologiyaning fanlararo rivojlanishi asosida vujudga kelgan tibbiyot sotsiologiyasining xorijiy mamlakatardagi dolzardligi va rivojlanib borishi ochib berilgan. Mazkur fanning tibbiyotni jamiyatning ijtimoiy instituti va quyi tizimi sifatida o'rganadigan, aholi salomatligi holatini va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab tibbiy yordamni tashkil qilishni tahlil qiladigan, salomatlik va kasallikning ijtimoiy jihatlarini ko'rib chiqadigan, manfaatlarni o'rganadigan, sog'liqni saqlash, kasallik, sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarishni o'rganuvchi fan ekanligi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tibbiyot, tibbiyot sotsiologiyasi, sog'liqni saqlash, kasallik, salomatlik, jamoa salomatligi, demografik jarayonlar, sog'lom turmush tarzi, gigiena, farmatsiya sotsiologiyasi.*

Yer yuzidagi eng kadimiy kasblardan biri - bu tibbiyotdir. Tibbiyot o'zining ko'p yillik tarixi davomida boshqa kasblardan muhim tomonlari bilan farq qiluvchi shifokorlik kasbining boy tajribalariga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda dolzarb masalalardan biri hisoblangan tibbiyot yo'nalishida ham bir qator sotsial muammolar mavjud, ya'ni aholi o'rtasida tibbiy madaniyatning sustligi, sifatli va malakali kadr tayyorlash uchun sharoitlar yaratish, tibbiyot xodimlarini rivojlangan chet mamlakatlarga malaka oshirish maqsadida yuborish yangi zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash borasida kabi masalalarda namoyon bo'ladi. Zero, inson salomatligi - individ, shaxs va faoliyat subektiv darajasida namoyon bo'ladi. Kishining ruhiy holati, shaxsiyatiga sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tahlil qilishda uning jismoniy sog'lig'i asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholining muhtoj qatlamlarini tibbiy-ijtimoiy himoya qilish borasida olib borilayotgan salmoqli ishlar, davlat dasturlari amaliyoti o'zining samarasini ko'rsatmoqda. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish, oila va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida ijtimoiy barqarorlik omillari bo'lgan aholi o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi uzayishi, kasalliklarning oldini olish, onalik, bolalikni muhofazalash va ko'pgina masalalarni rivojlanishiga erishilmoqda.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi asosida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, aholini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, pirovardida eng ulkan maqsad — odamlarni rozi qilish yo'lidagi sa'y-harakatlar izchil davom

ettirilmoqda. Jumladan, Davlatimiz rahbarining o'tgan yi 7 dekabrda PF-5590-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni<sup>1</sup> bu borada muhim ahamiyatga ega.

«Shifokor» so'zining ma'nosi ham bemorlarga ta'sir qilish ma'nosini anglatadi, bu ta'sir esa har bir tibbiy xodimning o'ziga bog'liq bo'lib, salbiy va ijobiy bo'lishi mumkin. Ulug' rus olimi Bexterevning «agar shifokorning birinchi suhbatidan so'ng bemor o'zini engil his etmasa, u shifokor-shifokor emas» degan iborasi bor. Mana shu iboraga amal qilinmasa bemorni sog'ayishiga kam imkoniyat qoladi va bemor sog'ayishiga ishonmay qo'yadi, u ruhiy tushkunlikka tushib boshqa bir patologik jarayon yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas.

Avvalo, hech kimni dard chekib, yotib qolgudek qilmasin. Lekin dardga chalingan har kimsaning undan forig' bo'lishi tibbiyotimizning yutug'iga, shifokor, hamshiraning bilim, tajribasiga, insoniy fazilatlariga va shu bilan bir qatorda, bemorning tabiati, o'z dardiga munosabatiga bog'liq.

Tibbiyot ilmiy allomalaridan bo'lmish Suqrot: "San'atlar ichida tabobat eng olijanob san'atdir", shu bilan birga, "Bemorni dori bilan emas, balki so'z bilan davolash afzal" desa, Abu Ali ibn Sino uning fikrini quvvatlarkan: "Bemor borki, uni so'z bilan davolasa bo'ladi"<sup>2</sup>, deb aytgan.

Bitiruv malakaviy ishda tibbiy xizmat ko'rsatishda shifokorlarning kasbiy mahoratini yoritish keng qamrovli mavzu bo'lgani uchun faqatgina bemorlarni yaxshi so'z, yaxshi fikr, hushmuomala, mehribonlik, shirin so'z va ruxiy daldalari ila davolash xolatlari xaqida sotsiologik yondashuvi orqali tadqiqot olib borildi. Chunki tibbiy xizmat ko'rsatishda shifokorlarning kasbiy mahoratini yoritishda tibbiyot nuqtay nazaridan qaralganida unda tibbiy fanlar metodologiyasiga asoslangan holda bemalol ilmiy terminologiya va ilmiy nazariyalariyalaridan beqamukust foydalangan bo'lar edi. Shunday ekan, tadqiqot predmetimizda kasallikni bartaraf etishda shifokor va bemorning o'zaro munosabat jarayoni tadqiq etilgan. Zero buyuk mutafakkirimiz Abu Ali ibn Sino: «Tabibning vazifasi xastani davolash. Xastaga shirinso'z, hushhulq, hushmuomala bilan yondoshmog'i, uning dardini o'zining dardi deb bilmog'i, og'risa og'rib, yig'lasa yig'lab, ingrassa ingrab davolash kerak. Ammo, so'kinsa so'kinmasligi, dodlasa dodlamasligi, yomon ko'ngilga bormasligi lozim»<sup>3</sup>.

Jamiyatning zamonaviy taraqqiyoti har birimizdan bilimli, har tomonlama komil va sog'lom bo'lishimizni, ya'ni mustaqil O'zbekistonimizning faol vakili bo'lib shakllanishimizni talab qiladi. Fakat tayyorlangan shifokorgina, ya'ni o'z sog'lig'ini yaxshilashga intiluvchi, ritorika mahoratiga ega, nutq madaniyatini puhta bilgan, shaxslararo munosabatlarni tushungan, deontologiya elementlari hamda mantiqiy

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. –Toshkent. 2018 yil 7 dekabr. – PF-5590-son.

<sup>2</sup> Durdonalar xazinasi: Hikoyalar, masallar, rivoyatlar, nasihatlar, hikmatlar, latifalar .Jamoatchilik asosida muharrir M.Qodirov.-T.: Sharq, 1999.-192 b

<sup>3</sup> o'sha yerda

fikrlash tamoillariga asoslanuvchi shifokorgina Sog'liqni saqlash tizimi komponentlarini (elementlarini) aholiga etkazishda samaraga erisha oladi.

Oxirgi o'n yillikda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy o'zgarishlar aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarda ham o'z aksini topdi.

Jumladan, Sotsiologiya fani ham inson faoliyatining barcha sohalarini o'rganadi. So'ngi o'n yilliklarda uning rivojlanishi yangi nazariy va amaliy yo'nalishlarni qidirish bilan ajralib turadi, ularning ko'pchiligi fanning tegishli sohalarida paydo bo'ladi. Ushbu fan sohasi uchun xos bo'lgan muammolar majmuini o'z ichiga olgan va jamiyat tomonidan talab qilingan mustaqil ilmiy fan paydo bo'lishi haqida munozarasi imkoniyatini beruvchi axborot bazalari asta-sekin shakllanmoqda. Ulardan biri tibbiyot sotsiologiyasidir.

Tibbiyot sotsiologiyasi - ijtimoiy tibbiyot instituti va tibbiyotni o'rganadigan, ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab tibbiy yordamni tashkil etishni tahlil qiladigan, sog'liq va kasallikning ijtimoiy jihatlarini o'rganadigan, tibbiy manfaatlar va ehtiyojlarni o'rganadigan fandır.

Tibbiy bilim sohasi sifatida tibbiyot sotsiologiyasining predmeti - tibbiyotdagi ijtimoiy jarayonlarning faoliyati va rivojlanishi, tibbiyotning jamiyatning boshqa tarkibiy elementlari bilan o'zaro ta'siri, sog'liqni saqlash va kasallikning ijtimoiy jihatlarini, shaxslar, ijtimoiy guruhlar va aholining sog'lig'i va kasalligi bilan bog'liq istiqbollari va harakatini o'rganishdir<sup>4</sup>.

Predmetni aniqlab, ba'zi asosiy ta'riflarga nazar solamiz. Sog'liqni saqlash terminologiyasi bo'yicha<sup>5</sup> aholi sog'lig'i - muayyan ijtimoiy jamoatlarda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy farovonligini aks ettiruvchi tibbiy-demografik va ijtimoiy kategoriya, tibbiyot esa-bu kasalliklarning oldini olish, bemorlarni davolash, odamlarning salomatligini asrash va mustahkamlash, hayotni uzaytirishga qaratilgan ilmiy ma'lumotlar va amaliy faoliyatlar tizimidir.

Shifokorning professionalligi (yaxshi mutaxassisligi) faqat uning kasallik etiologiyasi (sababi), patogenezi, tashxis qo'yish usullari va davolashni bilishi bilan ifodalanmaydi, balki uning maslaxat berishni, muloqot qilishni va o'rgatishni bilishi, hamdardlik qilishni bilishi ham katta ahamiyatga ega. Shifokorning muloqot qilish san'ati uning bemor bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi, bemorning unga nisbatan qanchalik ishonch bildirishi darajasi bilan aniqlanadi. Faqat bemorning ishonchini qozonib, to'la-to'kis anamnez yig'ish mumkin, uni davolash jarayonida undan nima talab qilinishini tushuntirish mumkin. Ko'p xollarda shifokor bilan bemorning uchrashuvi odatiy maslaxat berish bilan kechadi, asosiy ta'sir etuvchi shaxs ham shifokor, ham bemor xisoblanadi.

T.Parsons tibbiyotni ta'riflashni, bir tomondan, bozorning xarakteriga ega bo'lmagan kasbiy faoliyatni, ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy nazorat shakli sifatida

<sup>4</sup> Surmach, M. Yu. Osnovnie definisii i metodologicheskie prinsipi sotsiologii medisini. Konsepsiya uchebnogo kursa/ M. Yu. Surmach // Voprosi organizatsii i informatizatsii zdravooxraneniya. - 2015. - № 4 (85). - S. 66-73.

<sup>5</sup> [http://www.mednovosti.by/termin\\_zdrav.aspx](http://www.mednovosti.by/termin_zdrav.aspx)

talqin etadi<sup>6</sup>. A.V. Reshetnikov esa: "Tibbiyot - bu kasalliklarni davolash va oldini olish, sog'likni mustahkamlash va himoya qilish, inson hayotini uzaytirishi uchun kasallik va sog'liqqa oid ilmiy bilimlar majmuyi. Ijtimoiy amaliyot sifatida tibbiy va ijtimoiy tizimlar, sog'liqni saqlash tizimi orqali amalga oshiriladi. Tibbiyot sotsiologiyasi tibbiyot institutini muayyan maqsadga ega va muayyan vazifalarni bajaradigan tibbiy-ijtimoiy odatlar, an'analar, e'tiqodlar, qarashlar, qoidalar, tartibga soluvchi qonunlar va murakkab tuzilmalar sifatida ko'rib chiqadi"<sup>7</sup>. Shunday qilib, sog'liqni saqlash jamiyat tomonidan tibbiyotda yaratilgan asosiy ijtimoiy vositadir.

Tibbiyot sotsiologiyasini o'rganish predmetining mohiyatini sarhisob qiladigan bo'lsak, tibbiy va ijtimoiy jihatlar nuqtai nazaridan shaxsiy xatti-harakatlar, ijtimoiy guruhlar va aholini optimallashtirishni asoslash bo'yicha tadqiqotlar predmeti alohida ajratilgan soha. "Ijtimoiy fanlar" guruhiga mansub bo'lgan mutaxassisliklardan tibbiyot sotsiologiyasi ijtimoiy hodisalar va faktlar, ijtimoiy muammolar va naqshlarni o'rganishga, tibbiy xususiyatlarni tavsiflovchi ijtimoiy jarayonlarning va ijtimoiy munosabatlarning majmuasini e'tiborga oladi.

Hammamizga ma'lumki, oxirgi yillarda mamalakatimizda ham tushkunlikka tushgan bemorlar soni juda tez sur'atda o'sib borayapti, buning asosiy sababi bemorlar bilan muloqot o'rnatishda tibbiy xodimlarning ehtiyotkorona maslahat bermasligidir. Shular bilan birga bemorlarni mavjud kasallik to'g'risidagi o'zaro suhbat jarayonida bir-biriga noto'g'ri fikr bildirishi oqibatida ham ushbu kasallik rivojlanadi. Shularni bilgan holda bemorlar bilan suhbat vaqtida etika va deontologiya qonun qoidalariga rioya qilinganda, sanitariya targ'ibot va tushuntirish ishlarini to'g'ri olib borilgan holdagina shifokorlar kasallikni oldini olish va uni kamaytirishga erishishimiz mumkin bo'ladi. Respublikamiz tibbiyot oliygoxlarida yatrogen kasalliklarni oldini olish uchun targ'ibot-tashviqot ishlari olib borishga va kasallikni oldini olishga, kasallikdan kutiladigan turli asoratlarni kamaytirishga, bemorlarga va ularni qarindosh-urug'lariga iqtisodiy, ruhiy va sotsial himoya qilish maqsadida Yatrogen kasalliklar o'rganiladi. Tibbiyot oliygoxlari talabalari, klinik ordinatorlari va tibbiyot kolleji o'quvchilariga tibbiyot xodimining xato-kamchiligi, noto'g'ri muloqoti natijasida yuzaga keladigan kasallikning kelib chiqishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning ob'ekti sifatida ayni paytda Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish Respublika ilmiy Markazi hamda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2- klinikasi shifokorlari va bemorlari tanlab olindi (80 nafar bemorlar). Tanlov kvotali usulda amalga oshirildi "Shifokor xatosi tufayli qo'shimcha kasallik ortirib olinganlik xaqida eshitganmisiz?" degan savolga qo'yidagicha javob ma'lumotlari olindi(diagramma 1):

<sup>6</sup> Parsons, T. The Social System /T. Parsons. – 2<sup>nd</sup>ed. – Glencoe: FreePress, 1952. – 575 p.

<sup>7</sup> Reshetnikov, A. V. Mediko-sotsialnie sistemi: sposobi obrazovaniya i sravnitelnyy analiz / A. V. Reshetnikov // Sotsiologiya medisini. - 2005. - № 1 (6). - S. 3

1.Xa, shaxsan o'zimga noto'g'ri tashxis qo'yib noto'g'ri davolashgan deb xisoblayman -39nafar(48.9%);


2.Xa, qarindoshimda shunday xolat bo'lgan-21nafar(26.2%);

3.Yuq, bunday xolatdan xabarim yo'q-15nafar(18.7%);

4.Javob berishim qiyin-3nafar(3.7%)

5.Javob berishdan bosh tortaman -2nafar (2.5%)

(diagramma 1)



Diagrammadan aniq ko'rinib turibdiki, bemorlarning 48 foizida shifokorlarning uning kasalligiga nisbatan shubxasi borligi ma'lum bo'lmoqda. Demak, tibbiyot yo'nalishlarida sotsial muammolar mavjudligining isbotidir.

Xozirgi kunda axoli orasidagi kasallanish strukturasi va o'lim sabablarining asosini tashkil etuvchi eng ko'p tarkalgan kasalliklar jumlasiga: yurak kon-tomir, onkologik, neyro-endokrin, asab ruxiy va boshqa kasalliklar kiradi. Shuning uchun ham xozirgi kunda xar-bir bemorga individual yondoshish ulardagi kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganish va ularni oldini olishga alohida e'tibor berish lozim. Shuning uchun ham xozirda shifokor bilan bemor orasidagi munosabatga va ijtimoiy profilaktikaga hamda bemorlarni davolashda unga tula konli bir shaxs sifatida karash, e'tibor berish talab etiladi. Mana shu vazifalarni xal etishda tibbiyot sotsiologiyasi o'rganishlikning roli katta. Chunki ushbu fan shifokor bilan bemorning bir-biriga yaqinlashuviga profilaktik faoliyatining yanada kengayishiga olib keladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarto'g'risida»gi Farmoni. -Toshkent. 2018 yil 7 dekabr. - PF-5590-son.

2. Akhmedova F. Harmonization of professional and personal competencies in future pharmaceutical personnel- thematics journal of sociology, T-5, № 2, 2021 <https://thematicsjournals.in/index.php/tjs/article/view/902>

3.Durdonalar xazinasi: Hikoyalar, masallar, rivoyatlar, nasihatlar, hikmatlar, latifalar .Jamoatchilik asosida muharrir M.Qodirov.-T.: Sharq, 1999.-192 b

4. Akhmedova F. Attitude of young people to education/Jurnal sotsialnyx issledovaniy, 2021
5. Ахмедова Ф.М. Пандемия давридаги та'лим тизими/ Журнал социальных исследований, 2020
6. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan - Eastern European Scientific Journal, 2018
7. Ахмедова Ф.М. Подход восточных мыслителей к проблеме формирования личностных и профессиональных качеств у молодого поколения/Журнал социальных исследований, 2020
8. M Bekmurodov, va boshqalar. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students - International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020
9. Surmach, M. Yu. Osnovnie definisii i metodologicheskie prinsipi sotsiologii medisini. Konsepsiya uchebnogo kursa/ M. Yu. Surmach // Voprosi organizatsii i informatizatsii zdravooxraneniya. - 2015. - № 4 (85). - S. 66-73.
10. Axmedova F.M. Tibbiyot sotsiologiyasining fanlararo ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishining xususiyatlari.Jurnal sotsialnyx issledovaniy, 2022
11. Dorishunos xodimlarni tayyorlashda shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi. Science and innovation/ international scientific journal volume 1 issue 8. <https://cyberleninka.ru/article/n/dorishunos-hodimlarni-tayyorlashda-shahsiy-va-kasbiy-k-nikmalarni-rivozhlantirish-samaradorligi>
12. Parsons, T. The Social System /T. Parsons. - 2<sup>nd</sup>ed. - Glencoe: Freepress, 1952. - 575 p.
13. Reshetnikov, A. V. Mediko-sotsialnie sistemi: sposobi obrazovaniya i sravnitelniy analiz / A. V. Reshetnikov // Sotsiologiya medisini. - 2005. - № 1 (6). - S. 3